


"O'zkimyosanoat" AJ va CRPT TURON o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi

// 21.10.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-crpt-turon-o-rtasida-hamkorlik-memorand>



"O'zkimyosanoat" AJ va "CRPT TURON" MChJ o'rtasida O'zbekistonda mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish vositalari sohasida raqamli markirovkalash tizimini rivojlantirish va kengaytirishga qaratilgan o'zaro hamkorlik memorandumi imzolandi. Hujjat Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 203-son qarori maqsadlarini amalga oshirish uchun imzolangan bo'lib, tomonlarning sohani raqamli transformatsiya qilishda uzoq muddatli hamkorlikka intilishini mustahkamlaydi.

Memorandumning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- kontrafaktga qarshi kompleks kurashish va bozorning shaffofligini oshirish;
- Kasbiy tajriba almashish, qo'shma o'quv tadbirlari, konferensiyalar va davra suhbatlarini o'tkazish;
- Raqamli markirovka tizimini rivojlantirish bo'yicha tashabbuslarni muvofiqlashtirish va birgalikda amalga oshirish.

Tomonlar agrar-sanoat sektorini raqamli transformatsiya qilish va O'zbekiston Respublikasida

mahsulotlarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni yanada muvofiqlashtirish va hamkorlik qilishga tayyor ekanliklarini tasdiqladilar.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati